MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

O‘LAN VA LAPAR JANRLARINING TADRIJIY TAKOMILI

Shomirza Turdimov,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va tarixi instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori, professor
https://orcid.org/0009-0005-4294-9876

Annotatsiya: *Maqolada o‘lan va lapar janrining o‘ziga xos xususiyatlari, ijro jarayoni va tarqaluv hududlari, she’riy qurilishdagi tafavuutlarning janrning o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatishidagi o‘rni xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘lan, lapar, qo‘shiq, atama, janr, o‘lan tashlash, lapar solish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются характерные особенности жанров улан (o‘lan) и лапар (lapar), специфика их традиционного исполнения и географические ареалы распространения. Особое внимание уделяется различиям в поэтической структуре, их роли в определении жанрового своеобразия, а также особенностям исполнительских традиций. Анализируются художественные и структурные признаки улана и лапара, позволяющие выявить их общие черты и отличительные особенности в системе узбекского музыкально-поэтического фольклора.*

Ключевые слова: *улан, лапар, песня, термин, жанр, исполнение улана (o‘lan tashlash), исполнение лапара (lapar solish).*

Abstract. *This article examines the distinctive characteristics of the o‘lan and lapar genres in Uzbek folklore, their traditional performance practices, and their geographical areas of distribution. Particular attention is paid to differences in poetic structure and their role in defining the specific characteristics of each genre. The study analyzes the artistic, structural, and performance-related features of o‘lan and lapar, identifying their similarities and distinguishing characteristics within the system of Uzbek musical and poetic folklore.*

Keywords: *o‘lan, lapar, folk song, terminology, genre, o‘lan tashlash (traditional o‘lan performance), lapar solish (traditional lapar performance).*

O‘zbek xalq lirikasi tarkibida o‘lan va lapar alohida janrlar sifati qaraladi. O‘lan va laparlarning to‘planishi, nashrlari, o‘rganilishi majud tadqiqotlarda alohida qaralib, alohida baholangan[1]. Bu o‘rinda ortiqcha to‘xtalishga ehtiyoj yo‘q.

O‘lanchilik respublikamizdagi deyarli barcha viloyatlarining charvodor aholisi o‘rtasida keng tarqalgani, ammo lapar aytish va laparchilik an’analari, asosan, Farg‘ona vodiysi va Toshkent atrofida yoyilganlini tadqiqotchilar qayd etishgan. Biz bu o‘rinda o‘lan va lapar janrlarining kelib chiqish asoslari, atamalar etimologiyasiga to‘xtalmoqchi emasmiz. Asosiy e’tiborni o‘lan va laparlar ijrosining tadrijiy taraqqiyoti, bugungi holatidagi farqli jihatlar hamda janrlar chegarasi masalasiga qaratamiz.

[1] Jo‘rayev M, Tohirov O‘, Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri // O‘lan aytgani keldik. Respublika xalq ijodiy madaniy-ma’rifiy ilmiy-metodik markazi, Toshkent, 2013. – 11-15 betlar.

Avvalo, o‘lan va laparlarning maxsus boshlamaga egaligi, bu jarayonning “o‘lan tashlash”, “lapar solish” deb yuritilishiga diqqat qilaylik[2].

Baland tog‘lar boshida tuman toshi-yo,
To‘y oldidan tortganim so‘qim oshi-yo,
Hadding bo‘lsa qanikan o‘lan boshla,
Bu elatning man degan keksa, yoshi-yo.

Keltirilgan parcha o‘lan uchun an’anaviy boshlamalardan biri bo‘lsa, lapar deb yuritilayotgan namunadagi quyidagi boshlama ham she’riy qurilishi, ohangi va mazmunan aynan o‘lan misolidan farq qilmaydi.:

Tomdan tuproq tushadi yel turganda,
Laparni kim aytadi biz turganda.
Qoshu ko‘zi qiyilgan boyning qizi,
Yotsam uyqu kelmaydi siz turganda[3].

E’tiborli jihat shundaki, aksariyat hollarda lapar sifatida taqdim etiladigan namunalarni o‘lanlardan kompazitsion qurilish, qofiyalanish, misralar soni va ohang jihatidan farqlash qiyin. Yanada aniqroq aytilsa, ularning deyarli bir xil ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Faqatgina “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” kabi namunalar misolida o‘lan bilan laparlar solishtirib ko‘rilsa, keskin farqli jihatlar aniq ko‘rinadi. Bu holatda laparlar ikki xil ko‘rinishga egami, yoki bu namunalardan biri aslida o‘lan bo‘lib, Farg‘ona vodiysining bir qator hududlarida lapar deb yuritilganmi, degan mantiqiy savollar tug‘iladi. Chunki o‘lan bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan Sh.Imomnazarova ham an’anaviy tadqiqotlarga ergashgan holda, laparning biz shartli ravishda ikkiga ajratib ko‘rsatayotgan bu ikki turini bir xilda baholaydi. Aslida esa o‘lanlarga har jihatdan uyg‘un keluvchi lapar namunalarini o‘lanlar qatoriga kiritish, “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” kabi namunalarni esa sof lapar janri sifatida baholash mavjud voqelikka mos keladi.

Ayni namunalarning barchasida xariflar tarafma-taraf bo‘lib – yigit va qizlar yoki ikki dovlashayotgan guruh tarzida ijro etishadi. Lekin o‘lan va laparning o‘langa mos namunalarida ijrochilar mavzuga erkin yondashib, vaziyatga ko‘ra badihago‘ylik qiladilar, biri ikkinchisini to‘ldiradi, natijada, tomonlarning biri g‘olib bo‘ladi. Ammo biz lapar deb qarayotgan “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” kabi namunalarda she’riy matn deyarli o‘garmas shaklga kelgan va ushbu muhim jihati bilan ham o‘landan ajralib turadi. Yana bir farqli belgisi shuki, laparlar ijrosida musiqa sozlari, xususan, doira ishtirok etadi. O‘lan ijrosi sozlar ishtirokisiz ro‘y beradi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, biz bu paytgacha lapar janri doirasida qarab kelinayotgan va shartli ravshda birinchi guruh deb ataganimiz – laparlarning o‘lanlarga uyg‘un namunalarini o‘lanlarga qo‘shishni va o‘lanlar tarkibida o‘rganishni taklif etamiz.

---

[2] Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi. – 48 bet.
[3] Oy oldida bir yulduz (O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari). To‘plab, nashrga tayyorlovchi M.Jo‘raev. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – B.52.

Laparlarning “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” va boshqa namunalarlarini esa laparlarning tayanch ijrolari sifatida olib ular asosida lapar janri mezonlarini qaytadan qarab chiqish lozim deb bilamiz.

Bu o‘rinda yakka ijrochilar tomonidan raqs tushib ijro qilinuvchi aksariyat ashulalarni ham laparlar sirasida sanash, janr mezonlaridan kelib chiqib ularni qayta baholash kerak bo‘ladi. Aslida esa bu xil ijro namunalarini asar mohiyatidan kelib chiqib tegishli janrlar ichida tadqiq etish mumkin. Aksariyat hollarda bu namunalar folklorshunoslikda lirik qo‘shiqlar sifatida qaraluvchi janrga tegishli bo‘lib chiqmoqda.

Vaziyat taqozasi bilan folklorshunoslikda lirik qo‘shiqlar deb yuritiluvchi, asosan, marosimlarga tegishli bo‘lmagan va mavzu jihatidan ishq-muhabbat kechinmalari kuylanuvchi qo‘shiqlar nomlanishiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Bu o‘rinda “lirik qo‘shiqlar”, “o‘zbek xalq lirik qo‘shiqlari” kabi atamalardagi “lirika” so‘zi folklorshunoslikda keng va tor ma’noda qo‘llanilishi bilan noqulaylik tug‘diradi. Ikkinchidan, atamaning ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topishi atamashunoslik o‘lchamlariga mos emas. Shu sabali biz bu atama o‘rniga xalq orasida qadimdan mavjud bo‘lgan “yalla” yoki “ashulla” atamalarini qo‘llashni taklif etamiz. Folklorshunosligimizda sheva so‘zlari orasidan muqobilini tanlab, shartli atama sifatida qabul qilish tajribasi mavjud. Masalan, xalq dostonlari ijrochilarini bildiruvchi baxshi, yuzboshi, soqi, jirchi atamalari orasidan baxshi so‘zi tanlangan va bugun rasman qabul qilingan. Ertak atamasi ham shunday taqdirga ega bo‘lib, matal, ushuk, vorsaqi so‘zlari orasidan tanlangani barchaga ma’lum. Xuddi shu kabi “lirik qo‘shiq” atamasini “yalla” yoki “ashulla” kabi nisbatan mohiyatga mos atamaga almashtirib qo‘llashimiz har jihatdan maqbul bo‘ladi. Qolaversa, musiqashunoslik tadqiqotlarida ushbu atamalar faol qo‘llanib kelinmoqda. Musiqa folklori va xalq og‘zaki ijodi atamalarini yaxlitlashtirish nafaqat xalq ijodini, balki fan yo‘nalishlarini ham yagona maqsad sari boshlaydi va rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

O‘lan va lapar janrlarining bugungi taraqqiyoti ularning har birini alohida-alohida o‘rganish barobarida, tarixan o‘zaro kesishgan nuqtalarini umumlashtirib, bir-biridan kesin farq etuvchi o‘rinlarini urg‘ulab, janr mezonlari talablari asosida aniq baholash kerakligini bugungi folklorshunosligimiz ham talab etadi. Shu sababli biz yuqorida sanab, ko‘rsatib o‘tgan holatlar shunchaki qayd bo‘lib qolmay, jamoatchilik va mutaxasislar diqqatini jal etadi hamda tegishli xulosalarga kelishga sabab bo‘ladi, deb umid qilamiz.

Bugungi kunda bevosita o‘qitish jarayonida ham ushbu farq va uyg‘unlikka alohida e’tibor bilan qarash va mutaxasislar tuzayotgan o‘quv qo‘llanma va darsliklarda alohida diqqat qratish talab etiladi. Ana shunda folklor janrlarini o‘quvchi ommasiga mukammal yetkazib berish imkoni tug‘iladi.

Umuman olganda, o‘lan va lapar janrlarining genezisi, poetikasi, ijro xususiyatlari va hududiy tarqalishini kompleks o‘rganish o‘zbek folklorshunosligida janrlar tasnifini takomillashtirish, musiqiy-poetik merosning

tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash hamda an’anaviy ijrochilik madaniyatini ilmiy asosda tadqiq etish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarni davom ettirish, ayniqsa, o‘lan va laparlarning jonli ijro namunalarini audio va video shaklida hujjatlashtirish, ularning hududiy variantlarini qiyosiy o‘rganish va natijalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish milliy nomoddiy madaniy merosimizni asrab-avaylash, ilmiy targ‘ib qilish hamda kelajak avlodlarga yetkazishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev M, Tohirov O‘, Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri // O‘lan aytgani keldik. Respublika xalq ijodiy madaniy-ma’rifiy ilmiy-metodik markazi, Toshkent, 2013.

2. Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi.

3. Oy oldida bir yulduz (O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari). To‘plab, nashrga tayyorlovchi M.Jo‘rayev. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.